**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**«TASDIQLAYMAN»**
Navoiy davlat pedagogika instituti
rektori **M.B.Kalonov**
2024 yil "5" 09

# AKADEMIK RANGTASVIR - II

## O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100 000 – Ta’lim
Ta’lim sohasi: 110 000 – Ta’lim
Ta’lim yo‘nalishi: 70111201 – Tasviriy san’at va amaliy bezak san’ati

**Navoiy– 2024**

| Fan/modul kodi AkadR205 | | O'quv yili 2024-2025 | Semestr 3 | Kreditlar 5 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi majburiy | | Ta'lim tili O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari 4 | |
| 1. | Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Akademik rangtasvir II | | 60 | 90 | 150 |

2.

**I. Fanning mazmuni**

**Fanning maqsadi** – Akademik rangtasvir II fanining maqsadi tasviriy san'atning barcha turlarida (akademik rangtasvir, rangtasvir, amaliy san'at, grafika, haykaltaroshlik va hokazo) ishlashda ularning asoslaridan biri hisoblangan akdemik rangtasvir ishlash texnika va texnologiyasi bilan bo'lajak mutaxassis kadrlarni tayyorlashdir.

**Fanning asosiy vazifasi** – boshqa kasbiy fanlari qatorida bo'lajak o'qituvchi-rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanib, u magistrlarga nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, amaliy mashg'ulotlar qatorida nazariy bilimlar ham bo'lajak rassom-pedagoglarga ularning keyingi pedagogik va ijodiy faoliyatlarida muhim o'rin tutadi.

Magistrlarning Akademik rangtasvirni yanada chuqur o'zlashtirishlarida o'qitishning ilg'or va zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhimdir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv uslubiy qo'llanmalar va ma'ruza matnlari, elektron adabiyotlar va tasvirlar, elektron materiallar, tasviriy san'at atributlaridan to'la foydalaniladi. Yetuk o'zbek va xorijiy tasviriy san'at usta rassomlarining jahon miqyosida tan olingan san'at asarlari namunalari hamda metodik jihatdan mukammal reproduktiv ishlari; zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda mashg'ulotlar tashkil etish; postanovkalarni tashkil etishda safit (yoritgichlar)lardan foydalanish. Buyuk san'at ustalari va ularning ijod etish jarayonlarini aks ettirishga bag'ishlangan kino lentalari, chop etilgan namuna va elektron versiyalaridan keng foydalaniladi.

**II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**I-Modul: Akademik rangtasvir II fannining nazariy mashg'ulotlari. Akademik rangtasvir fanining kelib chiqish tarixi.**

**1-mavzu.** Akademik rangtasvir fanining kelib chiqish tarixi.

**2-mavzu.** Yevropa tasviriy san'atiga oyid asarlarni o'rganish va tahlil qilish.

**3-mavzu.** Osiyo mamlakatlarining tasviriy san'atga oyid asrlarini o'rganish va tahlil qilish.

**4-mavzu.** O'zbekiston hududida rangtasvir san'atini kelib chiqishi va shakillanishi.

**II-modul: Tugatilgan rangtasvir asarini bajarishda g'oya va kompozitsiyaning o'rni va ahamiyati.**

**5-mavzu.** Manzara janrida tasviriy san'at asrlarini ishlashning spessifik xusussiyatlari.

**6-mavzu.** Tarixiy janrda tasviriy san'at asarlarini ishlashning spessifik xususiyatlri.

**7-mavzu.** Natyurmort janrida tasviriy san'at asarlarini ishlashninig spessifik xususiyatlari.

**8-mavzu.** Portret janrida tasviriy san'at asarlarini ishlashning spessifik xususiyatlri.

**9-mavzu.** Ko'p figurali murakkab kompozitsiyaga ega bo'lgan san'at asarlarida inson qomatini tasvirlash texnologiyasi.

**10-mavzu.** Tasviriy san'at asarlarida falsafiy o'brazli g'oyalarni aks ettirish va talqin qilish.

**III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

**Amaliy mashg'ulotlari uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:**

**1. Miliy kiyimdagi ayol yoki erkak qiyofasining akademik rangtasviri. Tus va rang yechimini aniqlash, psixologik xarakterni topish.**

2. Miliy kiyimdagi ayol yoki erkak qiyofasini konstruktiv tahlil qilish, qiyofani qog'oz yuzasida joylashtirish.

3. Miliy kiyimdagi ayol yoki erkak qiyofasining akademik rangtasvirida rang xususiyati va fazoviy perspektivasini to'g'ri ifodalash.

4. Miliy kiyimdagi ayol yoki erkak qiyofasining akademik rangtasvirini metodik izchillikda yakunlash.

**5. Inson qomatini rangda ifodalashda tus va rang yechimini aniqlash, psixologik xarakterini topish.**

6. Inson qomatini rangda ifodalashda uni konstruktiv tahlil qilish, qiyofani qog'oz yuzasida joylashtirish.

7. Ish davomida axromatik va xromatik ranglarni o'rganish.

8. Inson qomatini rangda ifodalashda uning qiyofasini akademik rangtasvirida rang va tus munosabatlari, yoritilish xususiyatlarini hisobga olib akdemik rangtasvirini bajarish.

**9. Ikki kishi ishtirok etgan mavzuli kompozitsiya bajarish (kasblar yoki tanlangan muhit).** Qog'oz yuzasida joylashtirish.

10. Ikki kishi ishtirok etgan mavzuli kompozitsiyani konstruktiv tahlil qilish, ishni yakunlash.

**11. Uch yoki undan ortiq kishilar ishtirok etgan mavzuli kompozitsiya bajarish (kasblar yoki tanlangan muhit).** Qiyofani qog'oz yuzasida joylashtirish.

12. Uch yoki undan ortiq kishilar ishtirok etgan mavzuli kompozitsiyani konstruktiv tahlil qilish va ishni yakunlash.

**13. Uyg'onish davri rassomlari ijodiy asarlarini tahlili va ular asosida kompozitsiyalar ishlash.**

<table>
<tr><td></td><td>14. Rangtasvirning muhim xususiyati va obrazli ifodalash vositasi sifatida koloritning ahamiyatini o'rganish. Bosqichlar asosida ishlashni davom ettirish.<br>15. Uyg'onish davri rassomlari ijodiy asarlarini tahlili va ular asosida ishlangan kompozitsiyalarni metodik izchillikda yakunlash.<br>16. Plener (ochiq xavoda)da portret ishlash.<br>17. Plener (ochiq xavoda)da portret ishlash sifatida koloritning ahamiyatini o'rganish. Bosqichlar asosida ishlashni davom ettirish.<br>18. Plener (ochiq xavoda)da portret ishlashni metodik izchillikda yakunlash.<br>19. Plener (ochiq xavoda)da taniqli rassomlar an'analari asosida portret ishlash (A.Abdullayev, R.Axmedov).<br>20. Plener (ochiq xavoda)da taniqli rassomlar an'analari asosida portret ishlash (A.Abdullayev, R.Axmedov) portret ishlash sifatida koloritning ahamiyatini o'rganish. Bosqichlar asosida ishlashni davom ettirish.<br>IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar.<br>Magistr mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlari hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi.<br>- darslik va o'quv qo'llanmalar bo'yicha fan boblari hamda mavzularini o'rganish;<br>- tarqatma materiallar ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;<br>- maxsus adabiyotlar bo'yicha mavzular ustida ishlash;<br>- talabaning o'quv, ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari va mavzularini chuqur o'rganish;<br>- faol va muammoli o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari;<br>- masofaviy ta'lim.<br>Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:<br>1. Kasbga oid mavzuli kompozitsiya ishlashga oid asarlarni o'rganish va tahlil qilish.<br>2. Mavzu bo'yicha ishlagan rangtasvir asarlaridan nusxa ko'chirish asosida mashqlar bajarish.<br>3. Mavzu bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilish, mahorat darslariga oid video roliklarini o'rganish va tahlil qilish.<br>4. Tarixiy janrida ishlangan M.Nabiev, A.Aliqulov asarlarining tahlili.</td></tr>
<tr><td>4.</td><td>VI. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)<br>Magistr bilishi kerak:<br>– akademik rangtasvirning tasviriy san'atda tutgan o'rni;<br>– murakkab rangtasvir asarini ishlashda kompozitsiya qonunlarini;<br>– akademik rangtasvirda kolorit munosabatlari, rang psixologiyasi va ularning tugatilgan badiiy asarlar yaratishdagi tasavvur va bilimga ega bo'lishi;<br>– zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazishlarni bilishi kerak.<br>– barcha kasbiy fanlari qatorida bo'lajak o'qituvchi-rassomlarni tayyorlashda asosiy mezon hisoblanib, u magistratura talabasiga nazariy va amaliy mashg'ulotlar orqali olib boriladi;</td></tr>
</table>

| | |
|---|---|
| | – amaliy mashg'ulotlar qatorida nazariy bilimlar ham bo'lajak rassom-pedagoglarga ularning keyingi pedagogik va ijodiy faoliyatlarida muhim o'rin tutadi;<br>– rassom pedagog o'zining kelajakdagi ish jarayonida tasviriy san'at turining qaysi birida ijod qilishidan qat'iy nazar akademik rangtasvirga oid ***ko'nikmalariga ega bo'lishi***;<br>– akademik rangtasvir darslarini rejalashtirish: natyurmort, portret, odamning turli holatlaridan postanovkalar tashkil etish va tasvirlash texnologiyalari, talaba va o'quvchilarga qalamtasvir va rangtasvir mashg'ulotlarini tashkil etishda san'at asarlarini taxlil eta olish, yaxshi o'zlashtiruvchi va boshlovchi o'quvchilar bilan individual darslar olib borish, o'quvchilar ijodiy ishlarini baholay olish to'g'risida aniq ***malakalariga ega bo'lishi kerak***. |
| 5. | **VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br>• interfaol keys-stadilar; (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• amaliy mashg'ulotlar<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.<br>• ijodiy ishlar yaratish |
| 6. | **VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha variantlar asosida yozma topshiriqlarni bajarishi zarur. |

| | |
|---|---|
| 7. | **IX. Asosiy adabiyotlar:**<br>1. Abdirasilov S.F., Tolipov N.X. "Rangtasvir". O'quv qo'llanma "Ilm Ziyo" – Toshkent, 2019<br>2. O.D.Raximov "Rangtasvur" O'quv qo'llanma. Buxoro 2021<br>3. S.F.Abdullayev, I.N.Gadoyev "Rangtasvur" O'quv qo'llanma. Navoiy 2021<br>4. Sh.U.Bobonazarov "Rangtasvir" O'quv qo'llanma. Navoiu 2022<br>5. S.S.Bulatov "Rangshunoslik" O'quv qo'llanma. Toshkent 2009<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br>5. S.F. Abdirasilov, B. Azimov "Rangtasvir" – T.: Musiqa nashriyoti 2011<br>6. Xudayberganov R.A. "Rangshunoslik" – Toshkent, 2002.<br>7. Xudayberganov R.A. "Kompozitsiya" – Toshkent, 2008.<br>8. Abdurahmonov G'. Kompozitsiya asoslari. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU. 2010.<br>9. Baymetov B. "Plastikastik anatomiya". Amaliy mashg'ulotlar. O'quv qo'llanma Toshkent, 2011.<br><br>**O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni**<br>1. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)<br>2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 6 noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-6108-son farmoni.<br><br>**Axborot manbalari**<br>1. www. gov. uz – O'zbekiston Respublikasi xukumat portali.<br>2. www. lex. Uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi.<br>3. www. tdpu. Uz<br>4. www. Ziyonet. Uz<br>5. www. edu. Uz<br>6. tdpu - INTRANET. Ped<br>7. www. nbgf. Intal. Uz |

| | |
|---|---|
| **8.** | Navoiy davlat pedagogika instituti tomonidan ishlab chiqilgan va institut Kengashining 2024 yil "6" 09 ______ dagi qarori bilan tasdiqlangan |
| **9.** | **Fan/modul uchun mas'ullar va dastur mualliflari:**<br>Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedrasi<br>v.b.dots. p.f.f.d. (PhD) ______ **S.A.Shovdirov** |
| **10.** | **Taqrizchilar:**<br>**O.D.Raximov** – NDPI, "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi" kafedrasi dotsenti<br>**S.S.Abdullayev** – BuxDU "Tasviriy san'at va amaliy san'at kafedrasi" dotsenti |

**Kafedra mudiri** ______________ t.f.n. **A.H.Abdullayev**

№ Ts/M-56d